




ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» ((<https://tilvaadabiyot.uz>))

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 5-son



Shaxribon Musurmankulova. "Uztkrfraz" parallel korpusi ma'lumotlar bazasini shakllantirish texnologiyasi	84
Zarina Ro'zimurodova. "Londonjon" haqida nimalarni bilasiz?	86
Dilfuza Shadiyeva. Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan tajnis san'atining lisoniy xususiyatlari	87
Akmal Tursunov. Yasama so'zni o'rganishning morfologik bosqichlari	89
Назира Ахмедова. Художественная культура, как фактор развития индивидуальности и воспитания личности студентов технических высших учебных заведений	90
Исхақжон Исмаилов. Тарихнависликка эътиборнинг асар бадииятида тутган ўрни	92
Мухаббат Юсупова. Сценарий (скрипт) как динамическая когнитивная единица	94
Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy ijodida shayxlar zikri va ma'rifatulloh talqini	97
Фотима Ярқулова. Развитие речи на занятиях по русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки	100
Nafisa Sattorova. Shortened words and their types in English and Uzbek	103
Шахзода Эгамбердиева, Фарида Эгамбердиева. Соотношение концепций «коммуникативная стратегия» и «манипулирование» в рекламном дискурсе	105
Sharofiddin Jalilov. Otanazar Muso Mutavalli Kamoliy va uning devonining o'rganilishi	108
Dilfuza Shakirova. O'zbekiston ta'lim bozorida milliy brendning rivojlanishi tahlili	109
Gulshan Ishankulova. Yurtimizdagi ko'plab geografik joy nomlarining lingvistik tahlili	111
Dilbar Nigmatova. Ixtisoslashgan nashrlarda til va uslub jihatdan tahlil masalalari	113
Gavxar Axmedova, Maxbuba Ummatova. Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda masalaviy yondashuvning ahamiyati	114
Mukhayyo Atadjanova. Different approaches to the definition of the concept of "discourse"	116
Vohida Yuldosheva. Evfemizmlar madaniyatlararo muloqotning obyekt sifatida	118
Pardatursun Qurbonov. Fanlararo integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kasb-hunar tanlash kompetensiyalarini rivojlantirishning asoslari	121
O'tkir Bozorov. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiy va professional sifatlarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	122
Malika Suyunova. Xalq badiiy tilining Hamza she'riyatida tutgan o'rni	125
Oydin Shuxratova. Bolalar folklorining o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi o'rni	127
Nilufar Sultonova. O'zbek romanlarida postmodernistik suyet tamoyillari	129
Hulkar Isroilova. Abdulla Qahhor asarlarida erkak va ayol nutqidagi gender tafovutlar, disfemizm va evfemizmnin qo'llanilishi	131
Ra'no Madjidova, Eldor Khusanov. Ingliz va o'zbek tillarida sheva va dialekt tushunchalarining qo'llanilish usullari	133
Moxiraxon Usmonxodjayeva. Chet til darslarida o'quvchilarni madaniyatlararo muloqot qilish ruhida tarbiyalash	135
Ra'no Kasimova, Gulruh Olimova. Hojiakbar Shayxovning "Ikki jahon ovarasi" asarida qahramonlar ruhiyati	137
Maftuna Rahimova. Ikki tovushli so'zlarda ifodalovchi strukturasi	139
Fariza Ruzimurodova. The impact of deconstruction on the quality of literary translation	141

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

S.Abdullayeva. Chet tilini o'qitishda loyihalash modeli	143
Ziyoda Bazarova. Neyrodidaktika yordamida o'quvchilarning lisoniy kompetentligini shakllantirish muammolari	145
Adiba Davlatova. Abdulla Oripov poetik tafakkurining adabiy-estetik ildizlari	147

TAHLIL

Zuhra Qarshiboyeva. Sohaga oid terminlarning imlosi masalalari	150
To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy hayoti va adabiy muhit	151
Muhabbat Ruzmetova. Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvodidaktik aspekti	153

KICHIK TADQIQOT

Nodira Baxramova. Gorizontalar harakat fe'llarining ma'no tuzilishi	155
Dildora Yorbulova. "Qurbon" hikoyasining gap strukturasi tahlili	156
Gavxar Qurbonova. Olamning milliy lisoniy manzarasida astronomlar	158
Shohista Mahmudova. Muallif va badiiy asar munosabati	160
Qobil Egamnazarov. Yadro predikativ 1 (np1) o'rnida kelgan noaniq olmoshlar ifodalangan sintaksemalar	162
Shamsiddin Primov. Kichik hajviy publitsistik janrlar kommunikativlik xususiyatlari	163
Mirshod Eshonkulov. Xushboq Rahim lirikasida poetik nutqning yetakchi xususiyatlari	165
Shahribonu Hamrayeva. Alisher Navoiy obrazining o'zbek adabiyotida ifodalanishi	167
Muxayyo Rayxonova. Muallif tahririda takomillik	168
Aziza Amonova. PIRLS ta'lim sifatini rivojlantiruvchi va baholovchi xalqaro dastur	170
Aktam Gaffarov. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli va ularning o'ziga xos xususiyatlari	171
Bobur Sharipov. Retsiproklik tuzilishi va uning grammatik xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar	173
Nigina Akhmedova. The role of activities in improving speaking skill	174
Nafosatxon Hojiyeva. Ajratilgan bo'laklar gaplarni murakkablashtiruvchi vosita sifatida	175
Gulrukh Doniyorova. The significance of microbiological terms related to coronavirus vocabulary	177
Orzigul Ablakulova, Sohila Aminova. Video lessons and teacher's role in this type of lessons	178
Dilorom Yuldasheva. Subyektning mavhumlik darajasi va kontekstlarda namoyon bo'lishi	180
Umida Azimova. Oliy ta'lim muassasalarida Muqimiy asarlarining o'qitilishi	182
Muxlisa Muhitdinova. Muqimiy asarlarida iqtisodiy terminlarning qo'llanilishi	184
Dilafroz Nazarova. Huvaydo ijodida an'anaviy obrazlar talqini	186
Feruza Ermatova. Nazar Eshonqul asarlarida ma'nodosh so'zlar	188
Bahoroy Eshmanova. O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyatining milliy madaniy xususiyatlari	192
Nigora Erkinova. She'riyatda xalqona motiv va an'analar ifodasi	194
Dilshodjon Tirkashev. Somerset Moyemning "The moon and sixpence" ("Oy va olti penni") romanida badiiy obrazlar yaratishda stilistik vositalardan foydalanish	196
Malika Rajapova. Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari	197
Mazmuna Otayeva. O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari	198
Nodirakhon Khatamova. Advantages and challenges of integrating social media into foreign language learning	199
Yulduz Jovliyeva. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy merosining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati	201
Tojixon Sabitova. Alisher Navoiy olimlar haqida	202

ketishni oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilm diniy va ilmi zamonaviy meros qolsun.

Behbudiyning „Padarkush“ dramasi yuqoridagi fikrlarning yorqin dalilidir. Drama boshlanishida domla va ziyolining „o'g'lingizni o'qiting“ – deb bergan maslahatiga loqayd qarab, ularga salbiy munosabatda bo'lgan boy, drama yakunida fojiali tarzda halok bo'ladi. Uning o'limiga erka, ilmsiz, xuddi otasi kabi johil o'g'li Toshmurod sababchi bo'ladi. Ma'rifatsizlik, johillik bir oilaning parchalanishiga, otaning o'limiga, o'g'ilning padarkush nomini olib, uzoq Sibirga hukm qilinishiga sabab bo'ladi. Behbudiy bir oila misolida butun millatni mana shu fojidan ogoh etadi. Adabiyotning asl kuchi va maqsadi aynan shundan iborat. Asar jamiyat taraqqiyoti va kelajagiga xizmat qilsagina uning qiymati va bahosi oshib boradi.

Umuman olganda Mahmudxo'ja Behbudiy zamo-

nasining ma'rifatli, dunyoqarashi keng, ilg'or fikrli adiblaridan bo'lgan. U zamon taqdirini oldindan ko'ra bilgan, ya'ni millat imli, ziyoli bo'lsagina mamlakat obod va farovon bo'lishini anglagan va buni adabiyot vositasida xalqqa yetkazishga uringan va bunga erishgan. Behbudiyning: „Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidur, qarilar zamoni o'tgan. Siz kiromg'a bobasirat bo'lub, o'n daf'a o'lchab, bir daf'a kesingiz“, - [4:2] jumalari avlodlarga uning so'nggi so'zi – vasiyati bo'lib qoldi. Biz bo'lajak pedagoglar Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi, faoliyatini avvalo o'zimiz batafsil va tahliliy o'rganishimiz va buni o'quvchilar ongiga yetkazib berishimiz zarur. Chunki Behbudiy singari ma'rifatparvar ajdodimiz faoliyati va ijodi bilan tanishish yosh avlod qalbida vatanparvarlik va milliy g'urur hislarini junbushga keltirib, kelajakka olg'a intilishga, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan mustaqil fikrli shaxs bo'lib yetishishlarida benihoya ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar II jild Toshkent, Akademnashr, 2021-yil [1,233]
2. Z.Abdirashidov „Mahmudxo'ja Behbudiy“ (Jadidlar to'plami) Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent– 2022 [3,73; 4,141]
3. Mahmudxo'ja Behbudiy „Millatlar qanday taraqqiy etarlar?“ maqolasi „Samarqand“ gazetasi 1913-yil 30-iyul
4. www.ziynet.uz

Tojixon SABITOVA,

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

*O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

ALISHER NAVOIY OLIMLAR HAQIDA

Davlatimiz tomonidan 2023yil-insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deb bejiz belgilanmadi. Chunki insonlar ulug' mavjudot, har qanday hurmat va qadrga ega. Sifatli ta'lim berilgandagina yosh kelajak avlodimiz ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli insonlar bo'lib yetishadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev „Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi“ asarida „Davlat inson uchun“, „inson- jamiyat-davlat tamoyillari asosida tashkil etilishi darkor“¹, „Hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik“² tamoyili asosida insonlarni e'zozlash kerakligi haqida gapirganlar. Millatimizning shuhrati olamga taralmoqda. Shuningdek, olimlarimiz ilm-fan taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shayotganlari, yurtimizda „Yangi O'zbekiston - uchinchi Renessans sari“ degan shior ilgari surilayotgani bejiz emasligi aytilgan.

Albatta, o'zbek olimlari ham dunyo ilm-faniga juda katta ishlarni amalga oshirib o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bizning yurtimizda har doim olim-

lar e'zozlangan, ularning ilmdagi muvaffaqiyatlari qadrlangan. Xo'sh, inson kim? Insonning bu dunyodagi vazifa va burchlari nimalardan iborat?

Biz bu savollarga javobni ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlaridan olishimiz mumkin. Chunki alloma o'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlikni kuylab, o'z avlodlariga katta adabiy-falsafiy va ilmiy me'ros qoldirdi. Buyuk Navoiy hayoti va ijodini o'rganish, uning ijodiga merosxo'r millat vakili sifatida asarlaridagi badiiylikni, san'atlarni, g'oyasini, falsafasini, asarlar tahlilini bilishga intilish har bir o'zbek farzandining muqaddas burchi sanaladi. Inson aqliy faoliyatining kashfiyoti hisoblangan kitob bilan do'st bo'lmagan odam ma'naviy qashshoq bo'ladi. Shunday ekan, o'zbek millatining ma'naviy dunyosi, so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy ijodi bilan uzviy bog'liqdir.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlik-

ni kuylab, o'z avlodlariga katta adabiy-falsafiy va ilmiy meros qoldirdi. Navoiyning jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti bilan bog'liq fikr va mulohazalari qadim faylasuflari g'oyalari bilan hamohangdir. Navoiy ijodining bosh xususiyatlaridan biri, so'zsiz, kishilar o'rtasidagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va ezgulikning markaziy o'rniga qo'yilishidir.

Insonning insonligi kundalik oddiy hayoti-harakatdan boshlanadi. Har bir odam bu dunyoga inson bo'lib kelganimizdan faxrlanishimiz, bu buyuk nomga munosiblik maqomini yuqori tutishimiz lozim. Buning uchun esa juda ko'p o'qishimiz, uqishimiz kerak, albatta Alisher Navoiy asarlarini, chunki shoirning she'rlariyu dostonlari bizni ona diyorimizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Insonning eng go'zal va oliy fazilatlarini namoyon qiladi.

Alisher Navoiy hayoti davomida otasi va onasidan o'rgangan turkiy tilni (bugungi o'zbek tilini) himoya qiladi. Bu tilni qanchalar buyukligini ko'rsata oldi. Dunyoda olti mingga yaqin til bo'lsa, ularning har biri o'sha millat vakillarining ajdodlaridan qolgan qadriyati-madaniy merosi hisoblanadi. Alisher Navoiy bobomiz butun ijodi davomida ona tilimiz ravnaqi uchun kurashdi va bu mushkul vazifani eng yuksak darajada ado eta oldi.

Badiiy adabiyot g'oyaviy targ'ibotning eng kuchli vositasi bo'lib, bu borada olimlarning nufuzi va harakati asosiy o'rin tutadi. Albatta, zahmatkash olimlarning "igna bilan quduq qazishdek" mehnatlari borasidagina butun jahonga millatimizni ko'rsata oladigan asarlari-mizni targ'ib qila olamiz.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning doston va g'azallarida aks etgan ilmiy-badiiy, diniy-falsafiy tafakkuri shu qadar kengki, ba'zi baytlar sharhi o'quvchidan nihoyatda chuqur bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Uning doston va g'azallarida aks etgan ilmiy-badiiy, diniy-falsafiy tafakkuri shu qadar kengki, ba'zi baytlar sharhi o'quvchidan nihoyatda keng bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

Alisher Navoiy inson va olam, borliq falsafasini tushuntirishda tasavvuf ta'limotidan keng foydalangan. Navoiy o'z oldiga buyuk vazifa - insonni tarbiyalash vazifasini qo'ygan. Bu uning jamiyatni tarbiyalash vazifasiga global yondashuvdir. Shu yo'lda avvalo o'zi ibrat bo'ldi va boshqalarni ham bunga chaqirdi.

Shuningdek insonning, ya'ni olimning zimmasidagi bosh vazifa ilohiy ne'mat bo'lgan ona zaminni obod qilish, yuksak darajadagi ezgulikni asrab, mehnati, izla-

nishi va tafakkuri bilan, aqlan, ma'n'an yurtiga foyda keltirib yosh barkamol avlodni komil inson darajasida tarbiyalashi muhimdir. Alisher Navoiy o'z asarlarida insonlarni tafakkur qilishga, ilm orttirishga, yuksak ma'naviy - axloqiy mavqelarni egallashga chaqiradi. Tafakkur qilish insonda o'z vujudining mukammal yaratilganidan ta'sirlanish, borliqning mo'jizaviy suratda mutanosibligidan, hayotiy jarayonlarning mustahkam qonuniyatlariga ega ekanligidan hayratlanishda boshlanadi. Hayrat insonni, ya'ni olimni ilmini chuqurlashtirishga turtki bo'ladi. Zero ilmda yuksalish donishmandlikka olib keladi. Donishmandlik fozillik, ya'ni yuksak ma'naviyatni ta'minlaydi. Ilm o'rganish va uni yuksaltirish kamolot sari intilishning asosiy vositasidir. Navoiy asarlarida bular juda yorqin ifodalangan bo'lib, yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga egadir.

Buyuk mutafakkir shoir "Hayrat ul-abror" asarida insonning baht-saodati uchun, olimlarning kamoloti uchun juda yaxshi fikrlarni bayon etgan. Johillarni esa qoralagan.

Shoirning "Hayrat ul-abror" asaridagi:
Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami,- bayti Navoiyning butun faoliyati, ijodiyoti uchun yetakchi bir shior bo'lib qoladi. Navoiy insonni sevadi, uning haq- huquqlarini himoya qiladi va baxt - saodati uchun kurashadi. U sevgan inson har xil millatlardan musaffo, fozil va komildir. U mehnatkash ijodkor, o'z kasb - korini, lavozimini mukammal egallagan, mehnati va zakovati, faoliyati va intilishlari bilan o'ziga ham, o'zgalarga ham manfaat yetkazuvchi insondir. Tengi yo'q Sahiy Hotami Toyni o'z halol mehnati va qanoati bilan tong qoldirgan mo'ysafid chol, bilimi va zakovati bilan Xorazm shohini lol etgan olim Faxriddin Roziy va boshqalar shular jumlasidandir. Navoiy barchaning shunday inson va olim bo'lishini istaydi.

Ilm va ilm-fan ahliga yuksak baho berib, insonlarni ilm olishga, olimlarni izzat-hurmat qilishga, mehnatlarini qadrlashga chaqiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har doim, qaysi jamiyatda olimlar xalqqa, vataniga yordam bersa yurtning, jamiyatning poydeviri mustahkam, kelajagi porloq va insonlari tarbiyali, salohiyatli bo'ladi. Alisher Navoiy o'z davridagi insonlarning ana shunday bo'lishini xohlagan edi.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022, 59-61 b

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022, 25 b